

HUDUDLARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY BYUDJETLARNING MOLIYAVIY RESURSLARINI BOSHQARISH METADOLOGIYALARI

dots. **Imanova Umida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi

ORCID: 0009-0004-4351-7293

umidaimanova89@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish jarayonida mahalliy byudjetlarning moliyaviy resurslarini boshqarish metodologiyalari tahlil qilinadi. Avvalo, fiskal markazlashtirish va desentralizatsiya tamoyillari doirasida mahalliy byudjetlarning mustaqil daromad manbalari, ulushli soliqlar va markazdan ajratiladigan transferlar mexanizmi ko'rib chiqiladi. Keyin o'rta muddatli byudjet rejalashtirish, byudjet muvozanatini ta'minlash va natijadorlikka yo'naltirilgan byudjetlashtirish tamoyillari asosida resurslarni joyida samarali taqsimlash usullari keltiriladi. Shuningdek, tashabbusli (participatory) byudjet va jamoatchilik ishtirokini oshirish orqali mahalliy darajada moliyaviy resurslardan foydalanish shaffofligi va nazorat imkoniyatlari tahlil etiladi. Maqolada umumiy (erkin) transferlar, subventsiya-dotatsiya tizimi va gorizontaal tenglashtirish instrumentlari yordamida hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutni kamaytirish yondashuvlari ham yoritiladi. Bunga qo'shimcha ravishda soliq islohotlari, investitsion moliyalashtirish va risklarni boshqarish usullarining mahalliy byudjet barqarorligiga ta'siri o'rganiladi. Tadqiqot yakunida mahalliy byudjetlarni boshqarish metodologiyalarini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar – formulaviy transferlar mexanizmi joriy etish, interfaol byudjet portallarini kengaytirish va mahalliy obligatsiyalar chiqarish imkoniyatlarini yaratish taklif etiladi. Maqola amaliy tadqiqot va rasmiy statistika asosida yozilgan bo'lib, hududiy rivojlanish strategiyalarini moliyalashtirishda samarali vositalarni belgilashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: mahalliy byudjet, moliyaviy resurslarni boshqarish, hududiy rivojlanish, desentralizatsiya, fiskal mustaqillik, o'rta muddatli byudjet rejalashtirish, byudjet muvozanati, subventsiya, dotatsiya, umumiy (erkin) transferlar, tashabbusli (participatory) byudjet, jamoatchilik ishtiroki, shaffoflik va hisobdorlik, Hisob palatasi auditi, natijadorlikka yo'naltirilgan byudjetlashtirish, gorizontaal tenglashtirish, investitsion moliyalashtirish, risklarni boshqarish, soliq islohotlari, byudjet jarayonida shaffof formula.

МЕТОДОЛОГИИ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РЕСУРСАМИ МЕСТНЫХ БЮДЖЕТОВ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ РЕГИОНОВ

доц. **Иманова Умида**

Академия государственной политики и управления
при Президенте Республики Узбекистан

Аннотация. В данной статье анализируются методологии управления финансовыми ресурсами местных бюджетов в контексте социально-экономического развития регионов. Во-первых, в рамках принципов фискальной централизации и децентрализации рассматриваются независимые источники доходов местных бюджетов, долевые налоги и механизм трансфертов, выделяемых центральным правительством. Затем на основе принципов среднесрочного бюджетного

планирования, обеспечения бюджетного равновесия и результатно-ориентированного бюджетирования представляются методы эффективного распределения ресурсов на местах. Кроме того, за счёт расширения практики участвующего бюджетирования и общественного участия исследуется, каким образом укрепляются прозрачность и контроль за использованием финансовых ресурсов на местном уровне. В статье также обсуждаются подходы к сокращению социально-экономических диспропорций между регионами посредством общих (свободных) трансфертов, системы субвенций и грантов, а также инструментов горизонтального выравнивания. Кроме того, анализируется влияние налоговых реформ, инвестиционного финансирования и методов управления рисками на устойчивость местных бюджетов. По завершении исследования даются практические рекомендации по совершенствованию методологий управления местными бюджетами — внедрение механизмов трансфертов на основе формул, расширение интерактивных бюджетных порталов и создание условий для выпуска местных облигаций. Основываясь на прикладных исследованиях и официальной статистике, статья ставит целью выявить эффективные инструменты финансирования стратегий регионального развития.

Ключевые слова: местный бюджет, управление финансовыми ресурсами, региональное развитие, децентрализация, фискальная независимость, среднесрочное бюджетное планирование, бюджетное равновесие, субвенция, грант, общие (свободные) трансферты, участвующее бюджетирование, общественное участие, прозрачность и подотчетность, аудит Счетной палаты, результатно-ориентированное бюджетирование, горизонтальное выравнивание, инвестиционное финансирование, управление рисками, налоговые реформы, прозрачная формула в бюджетном процессе.

METHODOLOGIES OF MANAGEMENT OF FINANCIAL RESOURCES OF LOCAL BUDGETS IN THE SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF REGIONS

assoc. prof. **Imanova Umida**

Academy of Public Policy and Management
under the President of the Republic of Uzbekistan

Abstract. This article analyzes the methodologies for managing the financial resources of local budgets in the context of regional socio-economic development. First, within the framework of fiscal centralization and decentralization principles, it examines local budgets' independent revenue sources, share-based taxes, and the mechanism of transfers allocated from the central government. Next, based on the principles of medium-term budget planning, ensuring budget balance, and performance-oriented budgeting, it presents methods for effective on-site resource allocation. Furthermore, by enhancing participatory budgeting and public involvement, the study explores how transparency and control over local financial resource use are strengthened. The article also discusses approaches to reducing socio-economic disparities between regions through general (free) transfers, the subvention-grant system, and horizontal equalization instruments. Additionally, it investigates the impact of tax reforms, investment financing, and risk management methods on the sustainability of local budgets. The research concludes with practical recommendations for improving local budget management methodologies—introducing a formula-based transfer mechanism, expanding interactive budget portals, and enabling the issuance of local bonds. Based on applied research and official statistics, the article aims to identify effective tools for financing regional development strategies.

Keywords: local budget, management of financial resources, regional development, decentralization, fiscal independence, medium-term budget planning, budget balance, subvention, grant, general (free) transfers, participatory budgeting, public participation, transparency and accountability, Chamber of Accounts audit, performance-based budgeting, horizontal equalization, investment financing, risk management, tax reforms, transparent formula in the budget process.

Kirish.

Hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish – bu muayyan hududda yashovchi aholi turmush darajasini, iqtisodiy faollikni va infratuzilmani yuksaltirishga qaratilgan jarayonlar majmuidir. Ushbu rivojlanish jarayoni kompleks va ko'p omilli bo'lib, davlat tomonidan ishlab chiqiladigan makroiqtisodiy siyosat, resurslar taqsimoti, infratuzilma loyihalari va institSIONal islohatlar asosida shakllanadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, hududiy rivojlanishda eng muhim omillardan biri bu – mahalliy darajadagi moliyaviy resurslar boshqaruvining mustahkamligi va mustaqilligidir. Bu holat ijtimoiy xizmat sifati, iqtisodiy infratuzilmaning kengayishi, bandlik darajasi va investitsion jazibadorlikka bevosita ta'sir qiladi.

Mahalliy budjetlar davlat moliyaviy tizimining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Mahalliy moliyaviy resurslarni boshqarish bo'yicha nazariy qarashlar iqtisodiyotning turli bosqichlarida shakllangan bo'lib, ularning asosiy yo'nalishlari jahon va milliy iqtisodiyotning turli bosqichlarida shakllangan bo'lib, ularning asosiy yo'nalishlari jahon va milliy iqtisodiy tafakkur taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir.

Mahalliy budjetlar nazariyasiga oid dastlabki qarashlar Smit (1776), Rikardo (1817) kabi klassik iqtisodchilar asarlarida ilgari surilgan. Smitning (1776) "Bo'lylik tabiati va sabalari haqida tadqiqot" asarida davlat xarajatlari va ularni moliyalashtirish manbalari, shu jumladan, mahalliy darajadagi moliyaviy resurslarning ahamiyati tilga olingan. U davlat funksiyalarini minimal darajada cheklab, soliqlar orqali moliyalashtirish g'oyasini ilgari surgan.

Adabiyotlar sharhi.

Rikardo (1817) esa budjet muvozanatini ta'minlash uchun soliqlar va qarzlarini muvofiqlashtirish zaruratini ta'kidlab, soliqqa tirtish tizimining samaradorligini oshirishni taklif qilgan. Bu qarashlar mahalliy moliya boshqaruvining dastlabki nazariy asoslarini yaratdi.

Keyinchalik Keynes (1936) tomonidan ilgari surilgan iqtisodiy nazariya, xususan, davlatning iqtisodiyotini tartibga solishdagi faol roli, mahalliy budjetlarning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishidagi o'rnini yangicha talqin qilishga zamin yaratadi. Keynesga ko'ra davlat va shu jumladan mahalliy hokimiyatlar iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda faol investitsion siyosat yuritishi kerak.

Zamonaviy davrda mahalliy budjetlarning moliyaviy resurslarini boshqarish bo'yicha ko'plab olimlar tomonidan metodologik yondashuvlar ishlab chiqilgan. Jumladan, Musgrave davlat moliyasining uchta asosiy funksiyasi -resurslarni taqsimlash daromadlarni qayta taqsimlash va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash orqali mahalliy budjetlar resurslarini boshqarish tamoyillarini belgilab berdi.

Shuningdek, Tiebout modeli mahalliy moliyaviy boshqaruvda "tanlov orqali ovoz berish" tamoyilini ilgari suradi. Ushbu modelga ko'ra, fuqorolar va korxonalar o'zlarining ehtiyojlariga mos keladigan jamoaviy xizmatlar va soliq darajasi mavjud bo'lgan hududni tanlab, mahalliy hokimiyatlar o'rtasida raqobat muhitini shakllantiradi. Bu esa mahalliy resurslar samarali boshqarilishini rag'batlantiradi.

Mahalliy budjetlarni boshqarish metodologiyasi ko'p qirrali va dinamik yo'nalish bo'lib u iqtisodiy nazariya, huquqiy mexanizmlari, moliyaviy boshqaruv va hududiy rivojlanish strategiyalari bilan uzviy bog'liq. Ilmiy -nazariy asoslar zahirida esa davlatning iqtisodiyotdagi roli, fiskal federalizm, moliyaviy avtonomiya va samarali boshqaruv tamoyillari yotadi.

Hududiy rivojlanishga oid klassik nazariyalar orasida quyidagilar ajralib turadi:

Markaz - periferiya nazariyasining yetakchi olimlari Perroux, Friendmannlar (2001) hisoblanadi. Iqtisodiy faoliyatlar muayyan markazlarda to'plangan bo'lib, resurslar oqimi markazdan periferiyaga siljiydi.

Hududiy tengsizlik nazariyasining yetakchi olimlari Alonso (1969) hisoblanadi. Hududiy tenglikda bozor mexanizmi va infratuzilma imkoniyatlari regional farqlarni keltirib chiqaradi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi - UNDP, W.B iqtisodiy o'sish ijtimoiy adolat va ekologik muvozanat uyg'unligiga asoslangan modeli hisoblanadi.

Hududlarni ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha ko'pincha tematik jihatdan qizg'in bahs-munozaralarni yoki bu g'oyaning asoschisi Fransua Perroux (1954) fikrlariga tanqidiy yondashuvni keltirib chiqaradi, u o'z ishida yashirin maqsadlar borligida ayblangan. Perroux'ning (1954) g'oyalari dastlab yaxlit bilim tizimi sifatida taqdim etilmagan edi. Tadqiqot maqsadlari borasidagi kelishmovchililar tufayli ko'plab maqolalarda asosiy atamalarning noaniqligi bartaraf etilmaydi, bu esa ushbu tushunchaning nazariya va amaliyotda noaniq, befarqlik bilan qo'llanishini davom ettiradi. Bu noaniqliklar turli xil – ham tasodifiy, ham ataylab qilingan - noto'g'ri talqinlarga olib keladi. Shunga qaramay uning ilmiy qarashlari va nazariyalari o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Tadqiqotchilar hanuzgacha iqtisodiy bilimlarini oshirish hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish vositalari sifatida izlanishlar olib borishmoqda. Resurslarni taqsimlash va hududiy rivojlanishni tashkil etish muommolari bir-biridan ajralmasdir.

Albert Hirschmaning (1958) "The strategy of economic development" (1958), ushbu asarda Albert Hirschman (1958) iqtisodiy rivojlanishning "muvozanatsiz o'sish" (balanced growth) nazariyasini tanqid qilib, rivojlanayotgan mamlakatlarda bunday strategiyaning amalda qo'llanilishi qiyinligini ta'kidlaydi. Buning o'rniga, u iqtisodiy jarayonlarda yuzaga keladigan "noto'g'ri muvozanatlar"ni rivojlantirish uchun imkoniyat sifatida ko'rib, siyosatchilarga aralashish uchun nuqtalarni aniqlashni taklif qildi. Hirschman, shuningdek, yangi sanoatning orqa va oldingi aloqalarini (backward and forward linkages) tushuntirib, bu aloqalarning rivojlanishdagi ahamiyatini ko'rsatdi. Ushbu asar hududlarni ijtimoiy -iqtisodiy rivojlantirish sohasida muhim asarlardan biri hisoblanadi.

Graham Jones (1971), rivojlanayotgan mamlakatlarda fan va texnologiyalarning iqtisodiy va ijtimoiy o'sishga qanday yordam berishi mumkinligi haqida asarlarida ta'kidlab o'tgan. Fan texnologiyaning rivojlanishdagi roli, rivojlanayotgan mamlakatlarda ilmiy salohiyatni oshirish zarurati va bu jarayonda fan va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqaning ahamiyati ta'kidlanadi.

Mahalliy moliyaviy resurslar – bu tuman, shahar va viloyat budjetlariga tushadigan soliq va nosoliq tushumlar, davlat subsidiyalari, transferlar, shuningdek, xususiy sektor va aholining moliyaviy faolligidan olinadigan daromadlardir.

Moliyaviy boshqaruv tizimi quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

- moliyaviy mustaqillik – hududlarning o'z budjet siyosatini mustaqil yuritishi, resurslar ustidan mustaqil tasarruf etishi.
- shaffoflik va hisobdorlik – moliyaviy oqimlar bo'yicha aniq hisobot yuritish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.
- natijadorlik – har bir sarflangan mablag'ning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini ta'minlash.
- hududiy ehtiyojlar asosida rejalashtirish -budjet mablag'larini real demografik va iqtisodiy ko'rsatkichlarga asoslangan holda taqsimlash.



1-rasm. Moliyaviy boshqaruv tizimining asosiy tamoyillari

Manba: ma'lumotlar asosida tadqiqotchi tomonidan tuzildi.

Hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash uchun quyidagi strategik yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Hududiy strategik rejalashtirish- har bir hududning resurs salohiyati, infratuzilmasi va ijtimoiy ehtiyojlari asosida o'sish nuqtalarini aniqlab olinishi.

2. Davlat - xususiy sheriklik (DXSH) – infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda xususiy sektorni jalb qilinishi.

3. Budjetlararo munosabatlarni optimallashtirish – yuqori budjetdan pastki darajadagi budjetlarga uzatiladigan transferlar mexanizim adolatli va shaffof tashkil etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Rodionova (2003) hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini modellashtirishda geografik yo'nalishdagi ishlab chiqarish resurslari va rivojlanish asoslarini ham hisobga olish kerak deydi.

Xasayev, Sibatov (2000) hududlar ijtimoiy -iqtisodiy rivojlanishini modellashtirishda ishlab chiqarishning resurslar holati modelini ishlab chiqdi.

BMT nuqtai nazaridan ham u yoki bu milliy davlatning yutuqlari, mana shu ko'rsatkichlarning nisbiy yaxshilanishi bilan baholanadi. Ijtimoiy -iqtisodiy rivojlanishni, unga ijobiy va salbiy ta'sir qiluvchi omillarni ham nazariy va ham amaliy jihatdan, har tomonlama va uzoq muddat davomida izchil o'rganish, monitoringini olib borish zarur deb hisoblaydi.

Mahalliy budjetlarni moliyaviy resurslarini boshqarishning nazariy yondashuvlarida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning hozirgi holatini chuqur tahlil qilishda reyting baholash tizimi muhim ahamiyatga ega. Ushbu tizim orqali hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasi baholanadi va istiqbolga yo'naltirilgan maqsadli dasturlarni ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi. Ishtirokchi budjetlash – bu jamoatchilikning davlat budjeti shakllantirish jarayoniga faol ishtirokini ta'minlaydigan demokratiyaga asoslangan yondashuvdir. Ushbu yondashuvda aholining ehtiyojlari va ustuvorliklari hisobga olinadi, bu esa mahalliy moliyaviy resurslarni samarali boshqarishga yordam beradi. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish – bu ma'lum bir hududda iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik sohalarini muvofiqlashtirilgan tarzda taraqqiy ettirish jarayoni bo'lib, aholining turmush darajasini oshirishga qaratilgan kompleks harakatlar majmuasidir.

Hududlarni ijtimoiy -iqtisodiy rivojlanishda moliyaviy resurslarni boshqarish metodologiyasi bo'yicha ilmiy -nazariy qarashlar iqtisodiyotni hududiy boshqarish, budjet siyosati, investitsion faollik va moliyaviy resurslarni boshqarish metodologiyasi bo'yicha ilmiy -nazariy qarashlar iqtisodiyotni hududiy boshqarish, budjet siyosati, investitsion faollik va moliyaviy barqarorlik kabi jihatlarni o'z ichiga oladi. Quyida bu sohadagi asosiy ilmiy -nazariy yo'nalishlar, yondashuvlar va metodologik asoslar keltirilgan.

Moliyaviy resurslar – bu hudud iqtisodiyotini rivojlanish uchun zarur bo'lgan moliyaviy mablag'lar manbalari bo'lib, ular sarmoya, budjet mablag'lari, kreditlar, investitsiyalar, grantlar va boshqa turli shakllarda bo'lishi mumkin.

1-jadval

Hududiy rivojlanishning nazariy asoslari

Hududiy rivojlanish nazariyasi	Marazlashgan va markazsiz boshqaruv nazariyalari
Makroiqtisodiy resurslarning hududlar bo'yicha notekis taqsimlanishni tahlil qiladi. Bu nazariyaga muvofiq, moliyaviy resurslar ham resursga boy va kam resursli hududlar o'rtasida tenglashtirish (redistributsiya) mexanizmlari orqali boshqarilishi kerak.	Moliyaviy resurslarni boshqarishda markaziy hokimiyat va mahalliy hokimiyatlar o'rtasidagi vakolatlar muvozanatini belgilaydi.

Manba: ma'lumotlar asosida tadqiqotchi tomonidan tuzildi.

Moliyaviy resurslarni boshqarish metodologiyasi quyidagi nazariy yondashuvlarga asoslanadi.

2-jadval

Moliyaviy resurslarni boshqarish metodologiyasi

Budjet federalizmi nazariyasi	Investitsion muhit nazariyasi	Moliyaviy barqarorlik va xavfsizlik nazariyasi
Mahalliy budjetlar mustaqilligi va ularning moliyaviy resurslardan foydalanish huquqini asoslaydi. Resurslar taqsimoti prinsiplariga adolat, samaradorlik, subsidiarlik tamoyillari kiritiladi	Hududga investitsiyalarni jalb qilish uchun moliyaviy infratuzilma, soliq imtiyozlari kreditlash imkoniyatlari muhim. Hududlarning raqabotbardoshligi va kapital oqimini tahlil qilish asosida moliyaviy strategiya ishlab chiqiladi.	Hududlar moliyaviy mustaqilligini oshirish, budjet desitsitini kamaytirish qarz yukini muvozanatlashtirish asosida resurslarni boshqarish zarur va foresight yondashuvi asosida uzoq muddatli moliyaviy resurslarni rejashtirishdir.

Manba: ma'lumotlar asosida tadqiqotchi tomonidan tuzildi.

Budjet federalizmi nazariyasi – bu iqtisodiy nazariya bo'lib, davlat moliyaviy resurslarini turli darajadagi hukumatlar (markaziy , mintaqaviy va mahalliy) o'rtasida qanday taqsimlash kerakligi, har bir darajadagi hukumatning fiskal vakolatlari va ma'suliyatlari qanday bo'lishi lozimligini o'rganadi. Bu nazariya federal davlatlarda, shuningdek, unitar davlatlarda ham resurslarni samarali taqsimlashni asoslashda keng qo'llaniladi.

1972 yilda Wallace E. Oates “Desentralizatsiya teoremasi”ni ilgari surgan. Mahalliy hukumatlar o'z hududidagi ehtiyojlarni markaziy hukumatga qaraganda yaxshiroq biladi. Shunig uchun ayrim davlat xizmatlari va soliqlarni mahalliy darajada boshqarish samaraliroq bo'ladi. “Oates teoremasi” agar xarajatlar va daromadlar muvozanatli bo'lsa, desentralizatsiya ijtimoiy farovonlikni oshiradi deb hisoblagan. 1962 yilda James Buchanan (2013) va Gordon Tullock “The Calculus of consent” nazariyasi budjet federalizmni konsitutsiyaviy iqtisodiyot orqali izohlab, ular federalizmni siyosiy ixtiyoriylikni cheklash vositasi deb hisoblagan. Har bir darajadagi hukumatlar o'z funksiyasiga ko'ra moliyaviy ma'suliyatga ega bo'lishi kerak bo'lgan.

Mahalliy budjetlar boshqarishda bir necha nazariy va ilmiy yondashuvlar qo'llaniladi. Dastlab Keyneschilik budjet nazariyasi davlat xarajatlari va soliqlar yordamida iqtisodiy barqarorlikka erishishni ta'kidlaydi. Keynes (1936) davlat budjeti iqtisodiyotni inqiroz va o'sish davrlarida tartibga soluvchi vosita ekanini asoslab bergan. Shuningdek, budjet jarayonlarini samarali tashkil etishda Schicning budjet nazorati konsepsiyasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, u strategik rejalashtirish va natijadorlikka yo'naltirilgan yondashuvni ilgari suradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mahalliy budjetlarni moliyaviy resurslarini boshqarishda zamonaviy moliya va buxgalteriya nazariyalari ham qo'llaniladi. Bundan tashqari, natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish (Performance-based-PBB) konsepsiyasi har bir sohaga ajratilgan mablag'larning KPI (kalit natija ko'rsatkichlari) orqali baholanib, erishilgan natijalarga bog'liq ravishda moliyalashtirishni takidlaydi. Bu yo'nalish budjet xarajatlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, OECD tadqiqotlariga ko'ra natijadorlikka yo'naltirilgan moliyalashtirish loyihalar samarasini 20-30 % gacha yuksaltirilishi mumkin. Xuddi shuningdek, budjetni noldan rejalashtirish va ishtirokchi budjetlashtirish kabi usullar ham nazariy jihatdan taklif etilgan bo'lib, ularda mablag'lar sarfini tanqidiy ko'rib chiqish va jamoatchilik ishtirokini ta'minlash maqsad qilingan.

Mahalliy moliyaviy resurslarni boshqarishda fiskal federalizm konsepsiyalari alohida o'rin tutadi. Fiskal federalizm nazariyasiga ko'ra davlatning markaziy va hududiy boshqaruv organlari o'rtasida moliya sohasidagi vakolatlar aniq taqsimlanishi lozim.

Moliya nazariyasida Musgravening funksional yondashuvi ham qo'llaniladi- bunda fiskal siyosatning taqsimot, qayta taqsimoti (redistributsiya) va barqarorlashtirish kabi funksiyalari markaziy va mahalliy darajalarda optimal taqsimlanishi kerakligi nazarda tutiladi.

Yuqoridagi nazariy yondashuvlar mahalliy budjetlar boshqaruvining ilmiy asosini tashkil etadi. Asosan, fiskal federalizm tamoyillari asosida bozor iqtisodiyotiga ega mamalakatlarda moliyaviy resurslarning 30-60 % gacha qismi mahalliy budjetlar orqali qayta taqsimlanadi. Bu esa mahalliy budjetlarga yetarlicha moliyaviy mustaqillik berish va ularni samarli boshqarish nazariy jihatdan qanchalik muhim ekanini ko'rsatadi.

John Maynard Keynesning fikricha, davlat investitsiyalarni rag'batlantirishda faol rol o'ynashi kerak. Bu yondashuvga ko'ra, mahalliy budjetlar yordamida iqtisodiy faollikni oshirish, infratuzilma rivoji orqali xususiy sektorga rag'bat yaratish mumkin. Keynesian nazariyasi moliyaviy resuralarni mahalliy darajada ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarga yo'naltirishni nazarda tutadi.

Douglass North va boshqa institutsional iqtisodchilar fikricha, investitsion muhitga eng katta ta'sir ko'rsatuvchi omillar- bu siyosiy barqarorlik, huquqiy tizim, korrupsiya darajasi va boshqaruv sifati hisoblanadi. Mahalliy budjetlar kontekstida, bu qarashlar moliyaviy resurslardan foydalanishda shaffoflik, hisobdorlik va samarali boshqaruv tamoyillariga ahamiyatini ta'kidlaydi.

Joseph Schumpeterning innovatsion yondashuvi investitsiyalarni yangi texnologiyalar va yangiliklar orqali izohlaydi. Mahalliy budjedlarda innovatsion loyihalarini qo'llab-quvvatlash, startaplarga sarmoya yo'naltirish orqali zamonaviy iqtisodiy muhit shakillantrilishi mumkin.

Milton Friedman va boshqa monetaristlar investitsiyalarni rag'batlantirishda barqaror pul-kredit siyosati va inflyatsiyaning past darajasini asosiy omil sifatida ko'rsatgan. Mahalliy budjetlar darajasida bu moliyaviy intizom, balanslashgan budjet siyosati va soliq tizimining soddaligi orqali investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan nazariya hisoblanadi.

Franco Modigliani va Merton Miller tomonidan ilgari surilgan korporativ moliyaviy qarorlar nazariyasi investitsiya qarorlarini kapitallar narxi, risklar va daromadlik asosida baholash zarurligini bildiradi. Mahalliy darajada bu nazariya budjet resurslarini loyiha asosida tahlil qilish, investitsiyaviy samaradorlikni hisoblash zarurligini ta'kidlaydi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Yuqoridagi tahlil qilingan investitsion muhitga oid nazariy yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, mahalliy budjetlar moliyaviy resurslarni boshqarishda yagona yondashuv yetarli emas. Har bir nazariyaning o'ziga xos ustunliklari va amaliy qiymati mavjud. Bizning fikrimizcha, mahalliy budjet siyosatini shakillantirishda institutsionla barqarorlik, innovatsion faoliyatga e'tibor hamda iqtisodiy erkinlik tamoyillari uyg'unligi asosiy omil bo'lib xizmat qilishi lozim. Bu esa klassik keynesian, institutsional va innovatsion yondashuvlarning integratsiyalashuvi orqali amalga oshiriladi. Mahalliy darajadagi investitsion muhitni yaxshilash uchun bir tomondan, tashqi investorlar uchun qulay huquqiy va infratuzilma sharoitlarini yaratish, ikkinchi tomondan ichki resurslarni to'g'ri yo'naltirish va moliyaviy boshqaruvni shaffof tashkil etishda muhim hisoblanadi deb o'ylaymiz. Ayniqsa, budjet mabalag'larining samaradorligi va investitsiya loyihalarining natijadorligini baholovchi mexanizmlarni joriy etish orqali mahalliy budjetlarning investitsiyaviy salohiyati sezilarli darajada oshiriladi. Shu boisdan biz tomonimizdan ilgari surilayotgan nazariya "institutsional - innovatsion yondashuv asosida mahalliy investitsion boshqaruv modeli" deb atalib, u zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida amaliy ahamiyatga ega konsepsiya sifatida taklif etiladi.

Mahalliy moliyaviy resurslarni boshqarish jarayonida qo'llaniladigan metodologik tamoyillar tahlil qilinadi. Birinchi navbatda, manba va resurslarni aniqlash va ularni batafsil klassifikatsiya qilish tamoyili alohida e'tiborga olinadi. Bu yerda mahalliy budjet daromadlari va xarajatlari, shuningdek, maxsus va jamg'arma fondlarning strukturasini aniqlash orqali resurslarni reja asosida boshqarish imkoniyati yaratiladi.

Ikkinchi tamoyil – samaradorlik va iqtisodiy optimallik prinsipidir. Mahalliy darajadagi moliyaviy resurslarni taqsimlashda xarajatlar va foyda nisbatan tahlil qilish, shuningdek ijtimoiy -iqtisodiy loyihalarning investitsiya samaradorligini baholash orqali chegaralangan budjet mablag'laridan maksimal natija olish ko'zda tutiladi.

Uchinchi tamoyil – shafoflik va hisobdorlikdir. Boshqaruv jarayonida ochiq hisobot berish, audit nazoratini kuchaytirish va shaffof moliyaviy qaror qabul qilish mexanizmlarini tadbiq etish mahalliy resurslarning isrofini kamaytiradi hamda ishonchni mustahkamlaydi.

To'rtinchi tamoyil – barqarorlik va moslashuvchanlik. Mahalliy moliyaviy siyosat bozor sharoitlari, makroiqtisodiy o'zgarishlar va ijtimoiy talabga qarab tezkor moslashishni nazarda tutishi, budjet parametrlarini real vaqt rejimida qayta ko'rib chiqish mexanizmlarini joriy etishi lozim.

Beshinchi tamoyil – integratsiya va hamkorlik. Mahalliy darajadagi boshqaruv strukturalari va xususiy sektor, jamoat tashkilotlari hamda mahalliy kengashlar o'rtasida ma'lumot almashish va hamkorlik mexanizmlarini yo'lga qo'yish orqali resurslarni qo'shma loyihalarda samarali ishlatish mumkinligi ta'kidlanadi.

Ushbu metodologik tamoyillar birgalikda mahalliy moliyaviy boshqaruv tizimini optimallashtirish, resurslarni nazorat qilish va foydalanishni samarali tashkil etishda asosiy tizim bo'lib xizmat qiladi.

Rivojlangan mamalakatlarda mahalliy budjetlarni moliyaviy resurslarni boshqarish bo'yicha rivojlangan mamalakatlarning mexanizmlari shakllangan bo'lib, ularning ilg'or tajribalari O'zbekiston sharoitida foydali bo'lishi mumkin. Masalan, Shvestsiya misolida davlat moliyasi boshqaruvi to'liq shafoflik va natijadorlik tamoyillariga tayangan bu mamalakat ochiq budjet platformasi va natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish tizimini joriy etgan.

Mahalliy budjetlar hajmi va ulushi 2015-2019 yillarda O'zbekiston mahalliy budjetlari hajmi iqtisodiyot o'sishi bilan mutanosib ravishda oshib bordi va YAIM ga nisbatan taxminan 9-10 % atrofida saqlangan. Misol uchun 2019 yilda mahalliy budjetlar xarajatlari YAIMning 10,2 % iga teng bo'lgan.¹

2019 yilda umumiy davlat xarajatlarining 37,2 % ini mahalliy hokimiyatlar amalga oshirgan, chunki bu davrda mahalliy budjetlar davlat (konsolidatsiyalashgan) budjeti tarkibida muhim ulushga ega hisoblanadi.

Mazkur ko'rsatkichlar mahalliy budjetlar orqali davlat xizmatlarining salmoqli qismini moliyalashtirishni anglatadi. Darhaqiqat, ayrim baholashlarga ko'ra hozirgi vaqtda mahalliy hokimiyatlar davlat xarajalarining yarmidan ko'pini taxminan 56%ini amalga oshirmoqda.²

Mahalliy budjetlarning daromad manbalari tarkibi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ular asosan ikki qisimda shakllanadi:

- belgilangan ulushlarda taqsimlanadigan markaziy soliqlardan tushumlar;
- bevosita mahalliy soliqlar hamda boshqa daromadlar hisoblanadi.


2015-2017-yillarda mahalliy budjetlarning o'z daromad bazasi nisbatan barqaror bo'lib, ularning soliqlar va transfertlar jamlanganda davlat budjeti jami daromadlaridagi ulushi 35-40 % atrofida edi.

2018-2019 yillarda soliq siyosatidagi o'zgarishlar masalan, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining bekor qilinishi, foyda solig'iga qo'shilishi, yirik soliqlar stavkalarining pasaytirilishi tufayli mahalliy budjetlarning daromad tarkibida ma'lum siljishlar yuz berganini kuzatish mumkin.

¹ sng-wofi.org.

² [oecd.org](http://oecd.org/oecd.org)

Xususan, 2019 yilda yirik soliq tushumlarining katta qismi markaziy budjet daromadi sifatida shakllantirilib, mahalliy budjetlarga bo'linadigan ulushlar qisqartirildi. Shu bois 2019 yil yakunida mahalliy budjetlar daromadlarida markazdan ajratilgan transfertlarning ulushi oshib, mahalliy daromadlar tarkibidagi soliqlarning hissasi 60 % atrofida bo'ldi.



2- rasm. Mahalliy byudjet xarajatlarning funksional tarkibi (%)

2020 yilda COVID-19 pandemiyasi mahalliy moliyaviy resurslar tarkibiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Pandemiya sabab iqtisodiy faollik pasayishi natijasida daromadlar tarkibidagi soliq tushumlari keskin kamaydi va ularning ulushi 48 % gacha tushdi, pandemiyagacha 60 % ortiq edi. Buning o'rnini qoplash uchun markaziy budjetdan ajratilgan transfertlar hajmi oshirilib, 2020 yilda mahalliy budjetlar jami 45 % ini tashkil etdi. 2019 yilda bu ko'rsatkich 32,5 % edi.

Mahalliy budjet daromadlarining hozirgi tarkibida soliq tushumlari haligacha asosiy o'rnini egallaydi. 2020 yilda mahalliy budjet daromadlarining 48 % soliqlardan shakllangan. Soliq tushumlari tarkibida mahalliy budjetlar uchun eng muhimlari quyidagilar hisoblanadi.

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i – yirik "milliy" soliqlardan biri bo'lib, uning belgilan ulushi mahalliy budjetga tushadi. Masalan, 2020 yilda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i mahalliy daromadlarning 18,7 % ini taminlgan.

2. Yuridik shaxslar foyda solig'i – yirik korxonalardan undiriladigan foyda solig'ining ma'lum qismi mahalliy budjetlarga yo'naltiriladi. 2020 yilda bu manba mahalliy daromadlarning 6,3 qismiga teng bo'lgan va boshqa soliq turlarini sanab o'tish mumkin.

Mahalliy budjetlar mablag'lari asosan ijtimoiy soha va hududiy infratuzilma xarajatlariga yo'naltiriladi. 2015-2025 yillarda ushbu xarajatlar tarkibida eng katta ulush ta'lim hamda sog'liqni saqlash sohalariga to'g'ri keladi. Masalan, 2020 yil natijalariga ko'ra mahalliy budjetlar xarajatlarning deyarli 43 % ta'lim sohasiga sarflangan bo'lsa, sog'liqni saqlashga 21 % atrofida mablag' yo'naltirilgan.

Budjetni muvozanatli shakllantirish prinsipi - O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq, barcha mahalliy budjetlar defitsiz (tenglashtirilgan) tarzda tasdiqlashi shart -ya'ni, daromadlar va xarajatlar hajmi teng bo'lib, mahalliy budjet taqchilligi bilan qabul qilinmaydi. Amalda esa, ayrim hududlarda daromad manbalari yetishmaganda, ushbu kamomad yuqori budjet transfertlari hisobidan qoplanadi. Muvozanat tamoyilining qonuniy mustahkamlanib qo'yilgani moliyaviy intizomni ta'minlashda muhim omil bo'lsa-da, boshqa tomondan, cheklanmagan markaziy yordamlarga markaziy yordamlarga tayanish holati shakllanishi mumkinligi yuqorida ta'kidlandi. Shu bois, muvoznat tamoyilini saqlagan holda, transferlarni ajratish jarayonini aniq qoidalarga bog'lash va mahalliy budjetlar barqarorligini oshirish masalalari ham islohtlar asosiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. 2019 yildan boshlab O'zbekistonda davlat budjetini tuzishda uch yillik o'rta muddatli prognoz ko'rsatkichlarini kiritish amaliyoti

yo'lga qo'yildi. Xususan, 2019 yil uchun budget ilk bor 2020- 2021 yillar uchun mo'ljallangan fiskal parametrlar bilan birga tasdiqlandi. Bu esa, o'z navbatida, mahalliy budgetlar uchun ham o'rta muddatli davrga xarajatlar prognozini shakillantirish zaruratini yuzaga keltirdi. Ayni vaqtda har bir mahalliy budget bo'yicha keyingi uch yillikda asosiy ko'rsatkichlar rejalari ishlab chiqish amaliyoti joriy etilgan. Mazkur o'rta muddatli rejalashtirish tizimi strategik budgetlashtirish elementlarini joriy etib, resurslarni qisqa muddatli yondashuvdan uzoqroq istiqbolgas mo'ljallangan holda taqsimlash imkonini beradi. Shu bilan birga 2018 yildan boshlab davlat maqsadli jamg'armalari xarajatlarini bosqichma-bosqich budget tarkibiga kiritish amaliyoti joriy etilgan. Bu budget jarayonining ochiqligi va qamrovini kengaytirib, barcha moliyaviy operatsiyalarni yagona tizim doirasida rejalashtirishga xizmat qiladi. O'rta muddatli budget yondashuvi mahalliy budgetlarga ham o'z ta'sirini o'tkazib, ularni hududiy rivojlanish dasturlari bilan bog'lash, istiqboldagi tashabbuslarni moliyaviy asoslashga zamin yaratmoqda.

So'ngi yillarda budget ma'lumotlarini e'lon qilish, muhokama qilish va tashqi nazoratni kuchaytirish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2020 yildan boshlab Oliy Majlisda davlat budgeti ijrosi to'grisida hukumat hisobotlari muntazam eshilib, Senat tomonidan parlament nazorati yo'lga qo'yildi. Davlat budgetining shu jumladan mahalliy budgetlarning yarim yillik va yillik ijrosi yuzasidan ochiq hisobotlar Iqtisododiyot va Moliya vazirligi hamda OAVlar orqali e'lon qilinadi. Mahalliy darajada ham budget muhokamalari va hisobotlari bo'yicha xalq deputatlari Kengashlari faollashtirildi. Bundan tashqari, Hisob palatasi va uning joylardagi audit o'tkazish vakolatlari kengaytirilib, budget mablag'laridan maqsadli foydalanish ustidan nazorat kuchaytirildi. Ushbu chora tadbirlar moliyaviy resurslar boshqaruvida shaffoflikni ta'minlash va jamoatchilik ishonchini oshirishga qaratilgan.

Interfaol budgetlashtirish mexanizmlari - yuqorida alohida ta'kidlangandek, 2021 yildan fuqorolarning budget jarayonidagi bevosita ishtiroki uchun " Ochiq budget " axborot portali ishga tushurildi va tashabbusli budget loyihalari amaliyoti joriy etildi. Bu jarayonda mahalliy aholi va faollar budgeti mablag'larni qaysi mahalliy muommolarni hal etishga sarflash bo'yicha takliflar beradi, ovoz beradi va eng ko'p ovoz yig'gan takliflar moliyalashtiriladi. Natijada mahalliy budget shakillanishda quyi bo'gin fikri hisobga olinishi ta'minlanadi. Mazkur yondashuv bir ta'rifdan budget mablag'larining samaradorligini oshirsa, aholi talab qilgan loyihalar amalga oshiriladi. Ikkinchi tomondan, jamiyatda budget jarayonining ochiqligi va ma'suliyat hissini mustahkamlaydi. Kelgusida ushbu amaliyotni yanada kengaytirish va takomillashtirish jarayonlari ko'zda tutilgan.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, mahalliy budgetlar boshqaruvida ilmiy -uslubiy yondashuv sifatida natijadorlikka yo'naltirilgan budgetlashtirish prinsiplari bosqichma-bosqich amaliyotga tadbiq etilmoqda. Bu ishlar hozircha tajriba-sinov tariqasida amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, kelgusida barcha mahalliy darajadag xaridlar tizimini elektronlashtirish, ortiqcha va dublikat xarajatlarni qisqartirish, budget tashkilotlarini optimallashtirish kabi islohotlar ham iqtisod qilingan resurslarni boshqa muhim maqsadlarga yo'naltirish imkonini beradi. Jumladan, 2022-2024 yillarda respublika bo'yicha budget tashkilotlari shtat birlillarini maqbullashtirish hisobidan sezilarli mablag' tejalib, ular ijtimoiy soha xodimlari ish haqlarini oshirishga yo'naltirildi. Umuman olganda, mahalliy moliyaviy resurslarni boshqarish borasida oxirgi yillarda uslubiy va tashkiliy islohotlar kompleksi amalga oshirilib, ular budget jarayonini zamonaviy tamoyillar (shaffoflik, samaradorlik, javobgarlik) asosida rivojlantirishga qaratilgan.

Mahalliy budgetlar barqarorlogi va resurslar yetarliligi borasida qayt etilgandek, O'zbekiston amaliyotida har bir mahalliy budget turg'un (muvozzantli) holda tasdiqlanadi va defitsitga yo'l qo'yilmaydi. Agar mahalliy budget sarflari o'z daromadlaridan oshib ketsa, yetishmayotgan qismi davlat budgetidan budgetlararo transfer – subvensiya tarzda qoplanadi.

Adabiyotlar /Lumepamypa/Reference:

Albert O. Hirschman (1958) *The Strategy of Economic Development*.

Friedman, Jerome H. (2001). "Greedy function approximation: a gradient boosting machine". *Annals of Statistics*. 29 (5): 1189–1232. doi:10.1214/aos/1013203451. JSTOR 2699986.

Graham Jones (1971) *The Role of Science and Technology in Developing Countries*.

Keynes J.M. (1936) "Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi".

Perroux F. (1954) *L'Europe sans rivages*. — Grenoble: Presses universitaires de Grenoble, p.859.

Rikardo D. (1817) "Siyosiy iqtisodiyot va soliq solish asoslari to'g'risida".

Smit A. (1776) "Boylik tabiati va sabalari haqida tadqiqot".

William Alonso (1969) *Location and Land Use: Towards a General Theory of Land Rent* ISBN 978-0674729568.

William P. MacKinnon, (2013) "Prelude to Armageddon: James Buchanan, Brigham Young, and a President's Initiation to Bloodshed", in *James Buchanan and the Coming of the Civil War*, ed. by John W. Quist and Michael J. Birkner, pp 52–59.

Родионова И.А. (2003) *Региональная экономика*. М.: Экзамен, -С.6.

Хасоев Г.Р, Цыбатов В.А. (2000) *Технология прогнозирования регионального развития: О теоретические основы государственного регулирования экономического развития регионов* Вопросы экономики. –Москва: С-47.